

**NUMIZMATIKA.TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI  
TANGALARI.**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Xursanova Farangiz Ulug'bek qizi.*

*[farangizxursanova80@gmail.com.](mailto:farangizxursanova80@gmail.com)*

*Tel:+998947482949.*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Fayziyev Abdulazizbek Ravshan o'g'li*

*[fabdulazizbek@gmail.com.](mailto:fabdulazizbek@gmail.com)*

*Tel:+998919074240.*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*Jo'raqulova Mukambar Tursunmurod qizi.*

*[mukambarjurakulova@dtpi.uz.](mailto:mukambarjurakulova@dtpi.uz)*

*Tel:+998915120809.*

*Аннотация: Ushbu maqolada yoritilayotgan mavzuning mohiyati shundaki , numizmatika fani orqali temuriylar va shayboniylar tarixini har tomonlama obyektiv yoritishga qaratilgan. Bu orqali talaba yoshlar o'rtasida qadimiy tangalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va numizmatika sohasida yangi haqqoniy faktlarga asoslangan bilim va tushunchalarni shakllantirish maqsad qilib olingan. Temuriylar va shayboniylar davri tangalari o'rta asrlar haqidagi bilimlarni boyitadi.*

*Калит so'zlar: Numizmatika " numisma",ekvivalent, Eron, Ahamoniylar, Amir Temur, Qur'oni Karim, "fals", Shayboniylar, Abdullaxon II, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Balx, Ulug'bek, reforma.*

**НУМИЗМАТИКА.МОНЕТЫ ПЕРИОДА ТЕМУРИ И ШАЙБАНИ.**

*Аннотация: Сущность темы, освещаемой в данной статье,*  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz) *2-to'plam dekabr 2023*

заклучается в том, что она направлена на полное и всестороннее объективное освещение истории Тимуридов и Шайбанидов средствами науки нумизматики. Благодаря этому цель – повысить интерес учащихся к изучению древних монет и сформировать знания и понятия, основанные на новых фактических фактах в области нумизматики. Монеты периодов Тимуридов и Шейбани обогащают знания о Средневековье.

**Ключевые слова:** Нумизматика «нумизма», эквивалент, Иран, Ахемениды, Амир Темура, Священный Коран, «ложный», Шайбанис, Абдуллахан II, Ташкент, Самарканд, Бухара, Балх, Улугбек, реформа.

## **NUMISMATICS. COINS OF THE TEMURI AND SHAIBANI PERIOD.**

**Annotation:** *The essence of the topic covered in this article is that it is aimed at perfect and comprehensive objective coverage of the history of Timurids and Shaybanites through the science of numismatics. Through this, the goal is to increase the interest of students in studying ancient coins and to form knowledge and concepts based on new factual facts in the field of numismatics. Coins of the Timurid and Shaybanid periods enrich the knowledge of the Middle Ages.*

**Key words:** *Numismatics "numisma", equivalent, Iran, Achaemenids, Amir Temur, Holy Quran, "false", Shaibanis, Abdullah Khan II, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Balkh, Ulughbek, reform.*

**Kirish:** Tangalar o'tmishning haqiqiy guvohlaridir. Ibtidoiy tovar almashinuvi munosabatlaridan ekvivalent savdo munosabatlariga o'tishning tarixiy shart-sharoitlarini , ekvivalent material sifatida tovarga tenglashtirilgan qimmat ifodasi sifatida pul birliklarida paydo bo'lishi, buning mulkchilikva davlatchilik jarayonlari bilan bog'liqligi, pul birliklarini ashyoviy tadqiqi bo'yicha siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma'naviy sohalarga tegishli yodgorlik sifatida ilmiy ahamiyatini tushuntirish.<sup>1</sup> Ular tarix haqida, uzoq o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlar, dunyo qarash tizimlari, ishonch-e'tiqodlari haqida, badiiy

tasavvurlar to'g'risida bebaho ma'lumotlarni o'zida saqlaydi.

**Muhokama va natijalar.** Numizmatika - tangalar haqidagi fandır. U lotincha “numisma” so'zidan olingan bo'lib, tanga ma'nosini bildiradi. Numizmatlar tangalardagi rasmlar (tip), yozuvlar (izoh), fayl og'irligi, o'lchami, metall sifat, kim tomonidan berilgan zarb etilganligi, qachon va qayerda muomalada bo'lganligi kabilarni o'rganadilar. Numizmatik izlanish asosida tangalardan tarix va madaniyatga oid bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Qog'oz pullarni bonistika o'rganadi. Tanga bu belgilangan normadagi metall quymasi. U o'zining og'irligi, qiymatiga, sifat tarkibiga ega bo'lgan qonuniy muomala vositasi hisoblanadi.

Pul, qiymat o'lchovi, muomala vositasi, xazina to'plash, to'lov vositasi, jahon puli vazifalarini bajaradi. Tangalar fanning turli sohalari, jumladan tarix, arxeologiya, siyosiy iqtisod, tilshunoslik, san'atshunoslikka oid masalalarni hal etishga yordam beradi. Tangalar tarixiga to'xtaladigan bo'lsak: O'zbekiston SSR territoriyasida topilgan birinchi numizmatik yodgorlik Eron shohlari- Ahamoniylar davriga mansub. Bizning eramizdan oldingi VI -V asrlarda bu podsholik katta territoriyaga ega bo'lgan edi. Unga Old Osiyo shuningdek, O'rta Osiyoning qadimiy viloyatlari- Baqtriya (Tojikistonning janubi va O'zbekiston, Shimoliy Afg'oniston), So'g'd ( Zarafshon va Qashqadaryo vodiysi), Xorazm territoriyalari kirgan.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur taxt tepasiga keliboq o'z nomiga tanga pul zarb etgani yo'q. Har qalay uning nomi bilan bog'liq bo'lgan tanga 1372-yil bilan ifodalanadi. Shundan so'ng Temur nomi tushirilgan tangalar uning vafotidan qadar zarb qilgan.<sup>2</sup> Amir Temur davrida oltin, kumush, mis tangalar mavjud bo'lgan, ammo arxeologik tadqiqotchilarning o'rganishi natijasida oltin tangalar kam sonli zarb qilinganligiga amin bo'lamiz. Asosiy tangalar esa kumush tangalar bo'lgan. Temuriylar sulolasining yirik vakili Ulug'bek ham pul reformasini o'tkazadi. U avvalgi mis tangalarni bekor qilib o'rniga o'zi zarb qilgan bir xil vaznda ega mis tangalarni muomalaga kiritadi. Bu tangalar bizga "fals" nomi bilan ma'lum. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, tanganing bir tomonida

diniy aqidalar yoki Qur'oni Karimdan olingan birorta kalima , ikkinchi tomonida esa tanga chiqarilgan sana , joy zarb qilingan. Tangalardagi yozuv uncha chiroyli bo'lmay , ba'zan xatolarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, harflar tushib qolgan, ayrim harflar bir- biriga qo'shilib ketgan.<sup>3</sup>

Endi Shayboniylar davri tangalariga to'xtaladigan bo'lsak, dastavval shayboniylar o'z tangalarini zarb qilmagan, balki ular savdo, pul munosabatlarida avval zarb qilingan Temuriylar davri tangalaridan foydalanishgan. Shayboniy hukmdorlar orasida faqatgina Abdullaxon II o'zining oltin tangalarini zarb qilgan. Qolgan hukmdorlar zarb qilgan tangalar esa kumushdan bo'lgan. Shayboniylar zarb qilgan kumush tangalar Temuriylar davrida zarb qilingan tangalardan farq qilgan. Lekin mis tangalar Temuriylar davrida zarb qilingan mis tangalarga o'xshash edi. Shayboniylar yirik, ko'p hollarda chiroyli bezatilgan donorlardan tashqari mayda mis pullar ham zarb qilingan. Bizgacha yetib kelgan mis pullarni yozuvlari o'chib ketganligi uchun yaxshi o'rganilmagan.<sup>4</sup> Shayboniylar davrida tanga zarb qilishda zarbxonalarning ahamiyati oshgan va ko'paygan. Bunga misol tariqasida Movarounnahrning Andijon, Axxi, Buxoro, Kesh, Qarshi, Qunduz, Kufin, Samarqand, Toshkent, Termiz, Hisor, Shohruxiya, Balx singari shaharlarida tangalar zarbxonalarning mavjudligini keltira olamiz. Ammo hu zarbxonalarning barchasida ham doimiy tangalar zarb qilinib turilmagan. Faqatgina Toshkent, Samarqand, Buxoro va Balxda doimiy tangalar muntazam ravishda zarb qilib turilgan.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni ayta olamizki , Temuriylar va Shayboniylar davr tangalari bir-biriga juda o'xshash bo'lgan. Xususan Shayboniylar avval Temuriylar davri tangalaridan foydalandi, keyin aynan shu tangalarni o'zgartirdi, so'ng esa shu tanga namunalari asosida o'z tangalarini zarb qoldirdi. Arxeologik tadqiqotchilarning o'sha davrga oid topib o'rganilgan tangalari faqatgina savdo munosabatlari haqida ma'lumot beribgina qolmay, balki hukmdorlarning faoliyatlari , amalga oshirgan islohotlari , zabt etgan hududlari , xalqining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xo'jalik hayoti haqida guvohlik beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Is'hoqov, I. Xudoynazarov. Yordamchi tarixiy fanlar. TOSHKENT "NOSHIR"- 2019. 62-63 betlar;
2. T. Ernazarova, B.Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. O'ZBEKISTON SSR "FAN" NASHIRYOTI. TOSHKENT - 1977. 28-bet;
3. T. Ernazarova, B.Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. O'ZBEKISTON SSR "FAN" NASHIRYOTI. TOSHKENT - 1977. 30-bet;
4. T. Ernazarova, B.Kochnev. Tangalar o'tmish darakchilari. O'ZBEKISTON SSR "FAN" NASHIRYOTI. TOSHKENT - 1977. 31-bet.